

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2024/3-SON  
ILLOVA TO'PLAM

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>I.I.Rustamova</b>	
Abdulla Qahhorning "Sarob" romanida detallar funksiyasi va dinamikasi .....	770
<b>G.H.Oxunova</b>	
Badiiy obraz borliqni anglash omili sifatida (Isajon Sultan hikoyalari misolida) .....	773
<b>G.M.Oripova, F.A.Rahmataliyeva</b>	
Xokku she'riy janrida inson va tabiat tasviri .....	778
<b>G.Muhammadjonova</b>	
Erkin Vohidovning hajviy asarlarida davr muammolari .....	782
<b>Sh.D.Maxmidjonov</b>	
Badiiy nutq tiplari va qahramon ruhiy olami talqini (Tohir Malikning asarlari misolida) .....	787
<b>M.M.Xamidov</b>	
O'zbek adabiyotida tarixiy obraz va uning ifoda usuli .....	791
<b>O.A.Ahmadjonova, Sh.D.Ma'murova</b>	
Mahmudxo'ja Behbudiy publitsistikasida til o'rganish masalasi va milliy til qadri .....	795
<b>X.A.Abdulxamidova</b>	
Isajon Sultan romanlarida inson xronotop sifatida .....	799
<b>J.B.Sayidolimov</b>	
"Makorim ul-axloq" agiografik asar namunasi .....	803
<b>G.M.Oripova, G.G.Axmadaliev</b>	
Said Ahmadning hikoyanavislik mahorati ("Qorako'z majnun" hikoyasi misolida) .....	808
<b>I.S.Mannopov, B.D.Rajavaliyev</b>	
"Devoni hikmat"da ishq va oshiqlik talqini .....	812
<b>S.F.Komilova</b>	
Xalq dostonlarida do'stlik obrazi talqini .....	817
<b>O.A.Ahmadjonova</b>	
Asqad Muxtorning ayollar psixologiyasini yoritishda uslubiy o'ziga xosligi .....	820
<b>A.A.Abduraxmonov</b>	
O'zbek lirkasida nuring poetik funksiyasi .....	824
<b>X.A.Abdulxamidova, G.Sh.Shodiyeva</b>	
"Kutilgan kun" hikoyasida badiiy psixologizm .....	828

---

#### TILSHUNOSLIK

<b>S.N.Fazildinova</b>	
"Farhod va Shirin" dostoni nasriy bayonidagi tasvir vositalarning ifodalaniishi .....	831
<b>N.K.Ergasheva</b>	
Goals and objectives of the training practice .....	835
<b>O.A.Axmedova</b>	
Nofilologik oliy o'quv yurtlarida inglz tili terminalogiyasini o'qitishning nazariy asoslari .....	838
<b>Sh.B.Karimova</b>	
O'zbek tilida kvantitativlikning lug'aviy ifodasi .....	841
<b>A.U.Akhmedova</b>	
Challenges of using only traditional methods in teaching foreign languages .....	844
<b>A.U.Akhmedova</b>	
The effects of contemporary teaching methods in teaching foreign languages .....	850
<b>D.Ganieva, F.Khamidov</b>	
The comparative analysis of internet discourse in Uzbek, Russian and English languages .....	855
<b>Ш.Аскарова</b>	
Сущность языковой интерференции при изучении Немецкого языка .....	859
<b>S.Kh.Azimova</b>	
The stages of development of the theory of intercultural pragmatics in linguistics .....	863
<b>E.B.Yagyaeva</b>	
Talabalar mustaqil ta'liming mohiyati, tuzilmasi va vazifasi .....	867
<b>E.B.Yagyaeva</b>	
Ingliz tili o'qitish jarayonida talabalarning mustaqil ta'limiini tashkil etish bo'yicha metodik tavsiyalar .....	870
<b>G.Shodieva</b>	

**O'ZBEK TILIDA KVANTITATIVLIKNING LUG'AVIY IFODASI****LEXICAL EXPRESSION OF QUANTITY IN THE UZBEK LANGUAGE****ЛЕКСИЧЕСКОЕ ВЫРАЖЕНИЕ КВАНТИТАТИВНОСТИ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ****Karimova Shaxloza Boyquzi qizi** 

Farg'ona davlat universiteti, Ingliz filologiyasi kafedrası o'qituvchisi

**Annotatsiya**

Maqolada turli tillarda kvantitativlikning lug'aviy ifodalanishi masalalari tahlil qilinadi. Kvantitativlikning tillarda ifodalanish usullari turlicha bo'lub, bularidan eng samaralisi lug'aviy vositalardir. Tillarda kvantitativlikni ifodalovchi lug'aviy vositalar esa har bir tilning xuxusiyatiga ko'ra farqlanadi. Bunda tilning lug'at boyligi, so'zlarining ichki tuzilishi, semantik ma'no xuxusiyatlari va qo'llanilish imkoniyatlardan kelib chiqqan holda baholanadi. Shuningdek, ko'plab tadqiqotlar obyekti hisoblangan kvantitativlik va uning lug'aviy ifodalanishi haqidagi izlanishlar hamda ulardan kelib chiqqan holda kvantitativlikning lug'aviy ifodalanishiga doir mulohazalar beriladi.

**Аннотация**

В статье анализируются вопросы лексического выражения количественности на различных языках. Методы выражения количественности в языках разнообразны, и самыми эффективными из них являются лексические средства. Лексические средства выражения количественности различаются в зависимости от особенностей каждого языка. Это оценивается с учетом лексического богатства языка, внутренней структуры слов, семантических особенностей и возможностей их использования. Также рассматриваются исследования количественности и ее лексического выражения, которые являются объектом многочисленных исследований, и на основе этих исследований делаются выводы о лексическом выражении количественности.

**Abstract**

The article analyzes issues of lexical expression of quantitativeness in various languages. The methods of expressing quantitativeness in languages are diverse, with the most effective being lexical means. Lexical means of expressing quantitativeness differ depending on the characteristics of each language. This is assessed considering the lexical richness of the language, the internal structure of words, semantic features, and possibilities of their use. The article also examines studies on quantitativeness and its lexical expression, which are the subject of numerous researches, and based on these studies, conclusions are drawn about the lexical expression of quantitativeness.

**Kalit so'zlar:** kvantitativlik, kvantifikatorlar, lug'aviy ifoda, leksik sath, semantik ma'no, zildianish, maxsus kvantifikator so'z.

**Ключевые слова:** количественность, квантификаторы, лексическое выражение, лексический уровень, семантическое значение, оппозиции, специальное квантификаторное слово.

**Key words:** quantitativeness, quantifiers, lexical expression, lexical level, semantic meaning, oppositions, special quantifier word.

**KIRISH**

Kvantitativlik tushunchasi turli tillarda mavjud bo'lgan va keng qo'llanaladigan tushuncha bo'lib hisoblanadi. Ammo tillarda uni ifodalovchi vositalar aksariyat farq qilishini kuzatishimiz mumkin. Kvantitativlikni ifodalovchi vositalar ya'ni kvantifikatorlar maxsus so'zlar, qo'shimchalar, grammatick vositalar bo'lishi mumkin. Demak, kvantitativlik xolatini leksik, morfologik va grammatik, sintaktik jixatlarini taxlil qilish imkoniga egamiz. Bu esa kvantitativlikni maydon sifatida ko'rib taxlil qilish imkonini beradi.

Kvantitativlikni leksik sathdagi keng ko'lamenti xisobga olgan xolda ularni taxlil qilishda "Hozirgi o'zbek tili faol so'zlarining izohli lug'ati"ga [2] murojaat qildik. Ushbu lug'atda jami 15 mingga yaqin so'zlar mavjud bo'lib, ular orasidan kvantitativlikni ifodalovchi 843 taga yaqin so'zlarni ajratib olishga muvafaq bo'ldik. Bu taxminan lug'atning 6 % ga yaqinini tashkil etadi. Unga ko'ra, o'zbek tilida kvantitativlikni ifodalovchi so'zlarni qo'llanilish doirasi, ma'nolari va maxsus ifoda ko'rsatkichlaridan kelib chiqqan holda tahlilga tortildi.

## ADABIYOTLAR TAHLLILI VA METODOLOGIYA

Kvantitativlik termini o'rnida aksariyat hollarda o'zbek tilshunoslari tomonidan "miqdor" sifatida o'rganilgan. Mqdor semantikasi juda keng o'rganilgan mavzulardan. Ulardan F.Safarov o'zbek tilida son-miqdor mikromaydonini va uning lisoniy-nutqiy xususiyatalrini yoritadi. Unga ko'ra lisoniy vositlar son-miqdorni ifodalovchi vositlar salmog' bir emasligi ularning maydon tutgan o'rniga ko'ra farq qiladi. Otning son-miqdor kategoriyasi bosh, fe'lning son kategoriyasi, son turkumi, olmosh, egalik kategoriyasi markazi, nolisoniy vositlar maydon chekkasidan joy olishini ta'kidlaydi va shunga ko'ra quyidagi uch qismga bo'lib o'rganadi: yadro, markaz, chekka [5]. Bundan tashqari miqdoriy ifodalarni so'zlarga qo'shiladigan egalik qo'shimchalar orqali amalga oshirish imkoniyati [4], miqdor konseptini ifodalashda hisob so'zlarni o'mi [1], tarixiy-leksikografik asarlarda nomoyon bo'lishi [3], semantik kategoriya sifatida o'rganilgan [5].

### NATIJA VA MUHOKAMA

Kvantitativlikni ifodalovchi so'zlarni qo'llanilish doirasidan kelib chiqib quyidagi ko'rinishlarga ajratish mumkin:

- Noaniqlik (allaqancha, bir qancha...)
- Aniqlik (sakkizta...)
- Jamlik (barcha, hamma...)
- Bo'lishsizlik (xech qancha, nol...)
- Temporallik (tez tez, orada, ba'zida...)
- Xajm (katta, ulkan, kichik...)
- Dinamika (yomg'ir, sel, jala...)
- O'lchov (quloch, xovuch, litr, gramm, hektar...)
- Ierarxik ko'rinishlar (sekund, minut, soat...)
- Masofa (qadam,chaqirim, metr...)

Kvantitativlikni ifodalovchi so'zlar ma'nno jihatdan quyidagilarga bo'linishi mumkin:

- Aniqlik – uch, o'n ikki, yil, ma'lum, juft;
- Noaniqlik – sanoqsiz, ko'plab, ozroq, chamasi, ayrim;
- Yakka (birlik) – yolg'iz, tanxo, bir, o'z;
- Jamlik (ko'plik) – xamma, barcha, umum, to'da, qo'shin, qavm, jamoa;
- Shuningdek,
- Aniqlik – Noaniqlik;
- Butun – To'liqsizlik – Chama;
- Yakka – Jamlik kabi zidlanishlar kuzatiladi.

Bundan tashqari, kvantitativlikni ifodalovchi ba'zi so'zlar ma'nno jixatdan yuqoridagilar kabi miqdor xususiyatiga ega va ular maxsus so'zlar sifatida sanab o'tilishi mumkin. Sababi ular o'zları yaxlit xolda ma'nno ifodalaydi hamda o'z ichida bir necha miqdoriy ifodalarni jamlay oladi.

Masalan, "chorak" so'zi, ko'pincha matematik ifoda sifatida ishlataladi, shuningdek, 4 soni o'rnida,  $\frac{1}{4}$  qism, bo'lak, vaqt ko'rsatkichi – 15 minutni ifodalaydi. Qo'llanilishida "chorak asr", "chorak final", "maktablarda chorak - bu o'quv yilini qismiga nisbatan, xalq orasida bolalar tilida "bir, ikki, uch chorakam puch..." deb o'yin boshlanganligini bildiradi. Kvartet, round, revansh, qur, qo'sh, duel, kvota, kadr, impuls, sektor, semester shunday so'zlar jumlasidan.

### XULOSA

O'zbek tilida kvantitativlikning lug'aviy ifodalanishi keng ko'lamlı mavzu va bunga tadqiqotchilardan tomonidan turlicha yondashuvlar bo'lgan. Maqolamizda berilgan muhokamalar kvantitativlikning asosan lug'aviy ifodalanishida semantik ma'nno xususiyatiga ko'ra, tilda qo'llanilishi imkoniyatidan kelib chiqqan holda tadqim etildi. O'zbek tilida ko'p hollarda miqdor konsepti bilan ifodalanadigan maqolamizda esa kvantitativlik deb yuritilayotgan ushbu mavzu yana yangi qarashlar va izlanishlar qilinishi mumkin bo'lgan mavzudir.

### ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Egamberdiyeva N.L. O'zbek tilida miqdor konseptining ifodalanishida hisob so'zlarining ahamiyati. Research Focus, Uzbekistan, 2022. 172-bet.
2. Hojlyev A., Nurmonov A., Zaynobiddinov, Kokren K., Saidxonov M., Sobirov A., Qurbonov D. Hozirgi O'zbek tili faol so'zlarining izohli lug'ati. – Toshkent: Sharq, 2001.
3. Kimsanboyeva B., Muhammadsodigova N. "Devoni lug'oti-t-turk" asarida miqdor ifodalovchi lisoniy birliklar. – DOI 10.5281/zenodo.8141219, 2023.261-bet.

**TILSHUNOSLIK**

4. Kholmatova Z.T., Akhmadjonova M.B., Quantitative words and their usage in Uzbek Linguistics, 2022. 145-bet.
5. Mamajonova M.N. Kvantitativlik – Serqirra Kategoriya. Maisto Przyszlosci, Kielce, 2022. 41-bet
6. Safarov F.S. O'zbek tilida son-miqdor milromaydoni va uning lisoniy-nutqiy xususiyati. Samarqand, 2004.